

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 02/30.01.2020.K/T.104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI**

**ABDUAZIMOV BOTIR BAXADIROVICH**

**LIGNOTSELLYULOZALI CHIQINDILAR ASOSIDA O‘SIMLIKLARNI  
O‘SISHINI TEZLASHTIRUVCHI “ROSLIN”, “UGLIN”, DORILAGICH  
“DORILIN” VOSITALARINI ISHLAB CHIQRISH  
TEXNOLOGIYALARINI YARATISH**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Abduazimov Botir Baxodirovich**

Lignotsellyulozali chiqindilar asosida o‘simliklarni o‘shini tezlashtiruvchi “Roslin”, “Uglin”, dorilagich “Dorilin” vositalarini ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish..... 3

**Абдуазимов Ботир Баходирович**

Разработка технологий производства средств, стимулирующих рост растений «Рослин», «Углин», протравителя «Дорилин» на основе лигноцеллюлозных отходов ..... 21

**Abduazimov Botir Bakhodirovich**

Development of technologies for obtaining of dry extract containing flavonoids of *Rosa rugosa* leaves, its finished dosage form and assessment of biological activity..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 42

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 02/30.01.2020.K/T.104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI**

**ABDUAZIMOV BOTIR BAXADIROVICH**

**LIGNOTSELLYULOZALI CHIQINDILAR ASOSIDA O‘SIMLIKLARNI  
O‘SISHINI TEZLASHTIRUVCHI “ROSLIN”, “UGLIN”, DORILAGICH  
“DORILIN” VOSITALARINI ISHLAB CHIQRISH  
TEXNOLOGIYALARINI YARATISH**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T1274 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'simlik moddolari kimyosi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.uzicps.uz](http://www.uzicps.uz)) va "ZiyoNET" Axborot – ta'lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Xalilov Ravshanjon Muratdjanovich texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	Karimov Abdurashid Musaxonovich kimyo fanlari doktori, dotsent Abdurazakov Asqar Sheraliyevich texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	O'zR FA O.S. Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi O'simlik moddolari kimyosi instituti huzuridagi DSc. 02.30.01.2020. K/T.104.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «27» 03 soat 12<sup>30</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek ko'ch., 77. Tel. 71 262-59-13, e-mail: [plant\\_inst@icps.org.uz](mailto:plant_inst@icps.org.uz), [ixrv@mail.ru](mailto:ixrv@mail.ru)).

Dissertatsiya bilan O'simlik moddolari kimyosi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (50 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek ko'ch., 77. Tel. 71 262-59-13, e-mail: [nhidirova@yandex.ru](mailto:nhidirova@yandex.ru)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «15» 03 da tarqatildi.  
(2025-yil «15» 03 dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).



  
Sh.Sh. Sagdullayev  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, t.f.d., akademik

  
N.K. Xidirova  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, k.f.n.,  
katta ilmiy xodim

  
E.X. Botirov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, k.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda o‘simlik asosidagi tabiiy yuqori molekulyar birikmalarning kimyosi va texnologiyasi bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu, aynan, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar, qayta tiklanishi mumkin bo‘lgan xomashyo asosida samarali texnologiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratilishi va xalq xo‘jaligi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. O‘simlik xomashyosining asosiy sanoat iste‘molchilari an‘anaviy ravishda qishloq xo‘jaligi, texnik, yog‘ochli va dorivor o‘simliklarni kimyoviy, oziq-ovqat va farmatsevtika mahsulotlariga qayta ishlovchi sanoatlardir. O‘simliklarni qayta ishlash natijasida lignotsellyuloza chiqindilari to‘planadi. Ko‘pchilik hollarda, bu chiqindilar suv havzalariga chiqariladi, yirik chiqindi maskanlariga joylashtiriladi yoki yoqiladi, bu esa hududlarning ekologik xavfsizligini yomonlashtiradi. Shuning uchun bioorganik kimyo sohasidagi eng muhim vazifalardan biri lignotsellyuloza chiqindilarini qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bo‘lib, bu o‘z navbatida o‘simlik fiziologiyasiga ta‘sir qiluvchi biologik faollikka ega bo‘lgan agrokimyoviy preparatlar assortimentini kengaytirishga yordam beradi.

Bugungi kunda dunyoda o‘simlik resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida, lignotsellyuloza chiqindilarini qayta ishlash va chiqindisiz texnologiyalar yaratish eng dolzarb muammolardan biridir. Shu bilan birga, gidrolizlangan ligninlardan yangi o‘simliklarni o‘shini tezlashtiruvchi vositalar va urug‘larni dorilovchi maxsus preparatlar olish texnologiyalarini ishlab chiqish, gidroliz va biokimyoviy ishlab chiqarish chiqindilari bo‘lib xizmat qiluvchi, shuningdek, dorivor osimliklar *Aconitum leucostomum* (Akonit o‘simligi), *Thermopsis alterniflora* (Afsonak o‘simligi), *Glycyrrhiza glabra* (Shirinmiya ildizi) ning qoldiqlari bo‘lgan dorivor o‘simliklar qoldiqlari, farmatsevtika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, ikkilamchi manbalardan foydalangan holda og‘itlar olish, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan ilg‘or tadbirlarni joriy etish orqali, bir qancha ilmiy va amaliy natijalarga erishilgan. O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi rivojlanish strategiyasining uchinchi yo‘nalishida «...milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta‘minlash, ichki yalpi mahsulotda sanoatning ulushini oshirish va sanoat ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish...» kabi muhim vazifalar belgilangan, oltinchi yo‘nalishida esa «...xalq salomatligi va genofondga zarar yetkazayotgan ekologik muammolarni bartaraf etish...»<sup>1</sup> kabi muhim maqsadlar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, hududlarning ekologik muammolarni hal etish, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish va o‘simlik xomashyosini

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son farmoni.

qayta ishlovchi korxonalariga qo‘shimcha daromad manbalarini yaratishga qaratilgan kimyo va farmatsevtika sanoatining lignotsellyuloza chiqindilaridan yangi o‘simliklarni o‘shini tezlashtiruvchi va dorilagichlar vositalarni olishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-fevraldagi «Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari» PQ-4992-sonli qarori, 2022-yil 28-yanvardagi «2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» PF-60-sonli, 2022-yil 21-yanvardagi «2022-2026 yillarda respublikaning farmasevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-55-sonli, 2022-yil 20-maydagi «Dorivor o‘simliklar xomashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari» PF-139-sonli farmonlari va mazkur faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish» va VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda qo‘llaniladigan agrokimyoviy vositalarni olish texnologiyalarini ishlab chiqish va qishloq xo‘jaligi amaliyotiga joriy etish bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Dunyo miqyosida ligninlar va ularning hosilalarining kimyoviy tarkibini va biologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish, shuningdek, lignotsellyulozalar asosida agrokimyoviy moddalar olish texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha yetakchi ilmiy markazlar, jumladan, Germaniya, AQSh, Finlyandiya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Latviya ilmiy muassasalari bo‘lib u yerdagi K.Fisher, O. Feix, W.Flaig, F. Ramirez-Cano, J. Ralph, F.E. Braun, A. Hatakka, S. Sakamoto, S. Lin, D. Savy, J.S. Van Dyk, M.I. Chudakov, N.N. Shorigina, A.A. Komarov, G.F. Zakis., G.M. Telesheva, O.E. Bikovens, B.Y. Neiberte kabi olimlarning ilmiy ishlanmalari mavjud.

Shuningdek, yurtimiz olimlari X.A. Abduazimov, Z.K. Soipov, B.X. Pulatov, G.N. Dolimova, L.S. Smirnova, M.G. Ismoilova, A. Ergashevlarining tomonidan texnik va endemik o‘simliklarning ligninlarini kimyoviy o‘rganish, ligninlar asosida turli vositalar olish usullarini ishlab chiqish, ularni xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida qo‘llash, biologik xossalari va ularni foydalanish jarayonida sifatli natijalarga erishish meyorlarini o‘rganishga qaratilgan ishlari ham katta ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiya sholi po‘stlog‘i, yog‘och qipig‘i, paxta chigiti po‘stlog‘ining gidroliz ligninlarining suvda eruvchan ligninlari, *Aconitum leucostomum*, *Thermopsis alterniflora*, *Glycyrrhiza glabra* o‘simlik qoldiqlarining suvda eruvchan ligninlari, gidrolizlangan sintetik nitron tolasi eritmasi va *Gleditsia*

*triacanthos* urug‘larining suvda eruvchan polisaxaridlari bilan kompleks hosil qilish asosida agrokimyoviy mahsulotlarni yaratishga qaratilgan birinchi ilmiy tadqiqot hisoblanadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘simlik moddalari kimyosi instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining I2-T040 raqamli «Import o‘rnini bosuvchi, chigit va boshqa qishloq xo‘jalik o‘simliklarini urug‘larini yuqori samarali dorilovchi «Dorilin» vositasini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish» mavzusidagi innovatsion loyiha va «Mahalliy mintaqadagi yuqori o‘simlik polisaxaridlari va oqsillarining xususiyatlari, tuzilishi va biologik faolligi» mavzusidagi bazaviy moliyalashtirish bo‘yicha dasturida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Kimyo va farmatsevtika sanoatining lignotsellyulozli chiqindilari asosida o‘simlik o‘sishini tezlashtiruvchi «Roslin», «Uglin» va urug‘larni dorilovchi «Dorilin» vositalarini olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

sholi qobig‘i, yog‘och qipig‘i, paxta chigiti qobig‘i gidroliz ligninlari va *Aconitum leucostomum*, *Thermopsis alterniflora*, *Glycyrrhiza glabra* o‘simlik qoldiqlarini kimyoviy tarkibini o‘rganish;

gidroliz ligninlarining nitrat kislotasi va natriy gidroksid eritmaları bilan reaksiyasi ta’sir qiluvchi asosiy omillarini aniqlash;

o‘rganilayotgan o‘simlik qoldiqlaridan suvda eruvchan nitrolignin olishni maqbul sharoitlarini aniqlash;

nitronning ishqoriy eritmalarida erish jarayoniga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish;

nitroligninni nitron bilan kompleks hosil qilishining maqbul sharoitlarni aniqlash;

lignotsellyuloza chiqindilaridan Roslin, Dorilin va Uglin preparatlarini ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish.

**Tadqiqotning ob‘yekti** sifatida sholi qobig‘i, yog‘och qipig‘i va paxta chigiti qobig‘ining gidroliz ligninlari, akonit o‘simligi ildizi (*Aconitum leucostomum* Worosch.), afsonak o‘simligi yer ustki qismlari (*Thermopsis alterniflora* Regel et Schmalh.), shirinmiya ildizlari (*Glycyrrhiza glabra* L.) qoldig‘i va nitron tolasi chiqindilari (NTCh), shuningdek uch tikanli gleditsiya (*Gleditsia triacanthos* L.) urug‘larining polisaxaridlarini suvli ekstrakti olingan.

**Tadqiqotning predmeti** lignotsellyuloza chiqindilarini nitrat kislotasi va ishqoriy muhit tasirida kimyoviy ishlov berish orqali suvda eruvchan lignin mahsulotlarini olishning texnologik jarayonlari, shuningdek, sanoat chiqindilarini ishlab chiqarishga jalb etish va import mahsulotlarini mahalliyashtirish hisobiga respublikaning xomashyo bazasini ko‘paytirish istiqbollari belgilashdan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotlar davomida fizik-kimyoviy, texnologik usullar, shuningdek, tajribalarni matematik modellashtirish usullari qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

sholi qobig‘i, yog‘och qipig‘i va paxta chigiti qobig‘ining gidroliz ligninlari

eruvchanligiga kimyoviy va fizikaviy texnologik sharoitlarning ta'siri aniqlangan va ularni eruvchan shaklga o'tkazish uchun eng maqbul sharoitlar belgilangan;

analitik piroliz va biokimyoviy tahlil usuli bilan *A. leucostomum*, *G. glabra*, *T. alterniflora* lignotsellyulozali chiqindilarining kimyoviy tarkibi aniqlangan, natijada birinchi marta bu mazkur chiqindilarni o'simlik o'sishini tezlashtiruvchi vosita olish uchun muqobil xomashyo sifatida ishlatish taklif qilingan;

ilk marta *A. leucostomum* va *G. glabra* ildizlarining, shuningdek *T. alterniflora* o'simlikning yer ustki qismi ligninlarining suyuq sharoitda kislota – ishqoriy muhitlarning kombinatsion ta'siri jarayonida kimyoviy o'zgarishlari isbotlangan;

dorivor o'simliklar chiqindilarini yagona texnologik jarayonda o'simliklarni o'sishini tezlashtiruvchi faollikka ega bo'lgan suvda eriydigan lignin mahsulotlarini olish imkonini beruvchi resurslarni tejovchi, kompleks qayta ishlashning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan;

nitroligninning gidrolizlangan nitron bilan komplekslanishi uchun optimal sharoitlar aniqlangan, bu esa o'simliklarning o'sishini tezlashtiruvchi «Roslin» va urug'larni dorilovchi «Dorilin» agrokimyoviy vositalarini yaratish imkonini bergan;

suvda eriydigan nitrolignin va *G. triacanthos* urug'ining polisaxaridlari kompozitsiyasi asosida o'simlik o'sishini tezlashtiruvchi yangi «Uglin» agrokimyoviy vositasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

suvda eruvchan lignin, gidrolizlangan nitron eritmasini olish usullari va o'simliklarning o'sishini tezlashtiruvchi «Roslin», «Uglin» hamda urug'larni dorilovchi «Dorilin» agrokimyoviy vositalarini ishlab chiqish texnologik sxemalari ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan texnologiyalarga muvofiq O'simlik moddalari kimyosi institutining Tajriba ishlab chiqarish korxonasida yaratilgan preparatlar uchun ishlab chiqarish tizimlari tashkillashtirilgan va mazkur tizimda 5 seriyada me'yoriy texnik hujjatlar talablariga mos mahsulot olish orqali ishlab chiqilgan texnologiyalarning takrorlanuvchanligi isbotlangan;

quyidagi me'yoriy-texnik hujjatlar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan: Ts 03535440-002:2020 – «O'simliklarning o'sishini tezlashtiruvchi «Roslin» 10% li suvli eritma»; Ts 03535440-008:2020 – «Dorilin 10% li suvli eritma»; Ts 03535440-041:2020 – «O'simliklarning o'sishini tezlashtiruvchi «Uglin» 10% li suvli eritma».

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Zamonaviy matematik modellashtirish, analitik, texnologik, fizik-kimyoviy va statistik usullardan foydalanilganligi, shuningdek, yaratilgan agrokimyoviy vositalarni O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi institutidagi tajriba ishlab chiqarish korxonasida sanoat miqyosida ishlab chiqarilishi bilan izohlanadi. Fizik-kimyoviy tajribalar Latviya davlat yog'och kimyosi institutining ligninlar kimyosi laboratoriyasida sinovdan o'tkazilgan, preparatlarning biologik faolligini laboratoriya va dala sharoitlarida sinovdan o'tkazish Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, shuningdek, Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan amalga oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, gidroliz ligninlari va dorivor o'simliklar

qoldiqlarini nitrat kislotasi yordamida oksidlash va nitrolash, ishqoriy delignifikatsiyalash usullari yordamida suvda eruvchan ligninlar olishni maqbul sharoitlarini ilmiy asoslangan holda tanlashda aks etadi, shuningdek sholi qobig'i, yog'och qipig'i va paxta chigiti qobig'i gidroliz ligninlarining, va *A. leucostomum*, *T. alterniflora*, *G. glabra* o'simlik qoldiqlarining kimyoviy tarkibini o'rganish, mazkur xomashyolardan oqilona foydalanishga imkon berishi bilan izohlanadi. Dissertatsiya ishlari natijalari ligninlar asosida agrokimyoviy vositalar texnologiyalarning biotexnologik va kimyoviy sohasida o'qitish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishga asos bo'ladi;

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati mahalliyashtirish dasturlariga mos ravishda mahalliy xomashyolardan «Roslin», «Dorilin» «Uglin» agrokimyoviy vositalari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Ushbu preparatlarni ishlab chiqarish mahalliy agrokimyoviy vositalar assortimentini kengayishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, taklif etilayotgan texnologiyalar kimyo va farmatsevtika sanoatining chiqindilarini yo'q qilishga imkon beradi, bu esa ma'lum darajada hududlarning ekologik xavfsizligini va korxonalarining iqtisodiy rentabelligini ortishiga imkon beradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Lignotsellyulozli chiqindilar asosida o'simlik o'sishini tezlashtiruvchi «Roslin», «Uglin» va urug'larni dorilovchi «Dorilin» vositalarini olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

«Dorilin» preparati uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining ixtiroga patenti olingan (IAP № 03644, 2008 y.). Ilmiy tadqiqotlar natijalari paxta, bug'doy va sholi urug'larini ekishdan oldin dorilash uchun yangi dorilovchi ishlab chiqishga imkon bergan;

«O'simliklarning o'sishini tezlashtiruvchi «Roslin» 10% li suvli eritma»– Ts 03535440-002:2020 tashkilot standarti ishlab chiqilgan va “O'ZSTANDART AGENTLIGI” tomonidan ro'yxatga olingan (ro'yxatga olish raqami 112/0011229, 30.12.2020). Natijada, o'simliklarning o'sishini va rivojlanishini tezlashtiruvchi «Roslin» agrokimyoviy vositasini ishlab chiqarish imkoniyati yaratgan;

«Dorilin 10% li suvli eritma »– Ts 03535440-08:2020 tashkilot standarti ishlab chiqilgan va “O'ZSTANDART AGENTLIGI” tomonidan ro'yxatga olingan (ro'yxatga olish raqami 112/0011230, 30.12.2020). Ilmiy izlanishlar natijalari qishloq xo'jaligiga o'simliklarning o'sishini tezlashtiruvchi hamda paxta va g'alla urug'larini dorilash uchun fungitsid sifatida ishlatiladigan kam zaxarli, xavfsiz agrokimyoviy vositani joriy etish imkonini bergan;

«O'simliklarning o'sishini tezlashtiruvchi «Uglin» 10% li suvli eritma» – Ts 03535440-041:2020 tashkilot standarti ishlab chiqilgan va “O'ZSTANDART AGENTLIGI” tomonidan ro'yxatga olingan (ro'yxatga olish raqami 112/0011228, 30.12.2020). O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida *A. leucostomum*, *T. alterniflora*, *G. glabra* ligninlari va *G. triacanthos* urug'larining polisaxaridlari asosida o'simliklarning o'sishini va rivojlanishini tezlashtiruvchi yangi vositani joriy etish imkoniyati yaratilgan;

«Roslin», «Dorilin», «Uglin» agrokimyoviy vositalarning biologik faolligi dala sharoitlarida paxta yetishtirishda sinalgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq

xo'jaligi vazirligi aktlari, 25.09.2018-y.). Tadqiqotlar natijasida, ishlab chiqilgan agrokimyoviy preparatlar hatto sho'rlangan tuproq sharoitida ham samarali ekanligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar shaklida bayon etilgan holda aprobatsiyasi qilib borilgan, natijada 21 ta anjuman materiallari nashr etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, 1 ta patent olingan va 3 ta me'yoriy-texnik hujjat rasmiylashtirilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 138 betni tashkil etadi, shundan ilmiy natijalarni o'z ichiga olgan asosiy matn 118 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob'yekti va predmeti ifodalangan, tadqiqotning O'zRda fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga joriy etish bo'yicha xulosa qilingan, nashr etilgan ishlar to'g'risidagi va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Ligninlar kimyosi, qayta ishlash texnologiyalari va biologik faolliklari haqida umumiy sharx**» deb nomlangan bo'lib, unda ligninning fizik-kimyoviy xususiyatlari, texnik ligninlarning asosiy turlari, o'simliklarda ligninning biosintezi va roli, ligninning biologik parchalanishi va gumifikatsiyasi, shuningdek, ligninning reaksiya qobiliyatlari va kimyoviy reaksiyalari mexanizmlari haqida adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar muhokama qilingan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot ob'ektlari va usullari**» nomli ikkinchi bobida tadqiqot ob'ektlarining xossalari va kimyoviy-analitik tadqiqot usullari keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan lignin saqlovchi chiqindilarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish**» nomli uchinchi bob, sholi qobig'i (ShQGL), yog'och qipig'i (YoQGL) va paxta chigiti qobig'idan (PChQGL) olingan gidroliz ligninlarining (GL), akonit (*A. leucostomum*) o'simligining ildizlari, afsonak (*Th. alterniflora*) o'simligining yer ustki qismlari va shirinmiya (*G. glabra*) o'simligining ildizlari qoldiqlarining kimyoviy tarkibini aniqlash va olingan natijalari muhokamasiga bag'ishlangan.

GL-larning granulometrik tarkibini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, PChQGL-da 2 mm dan kattaroq bo'lgan fraksiyalar – 18%, ShQGL-da – 24%, YoQGL-da – 13% ni tashkil etadi. 2 mm dan kichik bo'lgan

fraksiyalar GL-larning umumiy massasining PChQGL-da 89%, ShQGL-da 75,7%, YoQGL-da esa 86,5% ni tashkil etadi. Namlik miqdori PChQGL-da 4,24 – 9,9%, ShQGL-da 3,1 – 6,5%, YoQGL-da 4,6 – 8,8% oralig‘ida ekanligi aniqlandi. Shuni qayd etish kerakki, zarra o‘lchami kichraygan sayin, fraksiyalarning miqdori va ulardagi lignin miqdori ortib borishi, begona moddalar bilan ifloslanganligi kamayib borishi kuzatildi. Shu sababli, keyingi tajribalar uchun faqat 2 mm dan kichik bo‘lgan GL fraksiyalari ishlatildi. ShQGL tarkibida boshqa GL-larga nisbatan kulning miqdori eng yuqori ekanligi, aksincha Klasson lignini eng past miqdorlarda bo‘lishi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Gidroliz ligninlarning 2 mm dan kichik bo‘lgan fraksiyalarining umumiy xususiyatlari

O‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar	GL namunasi		
	PChGL	ShQGL	YoQGL
Umumiy GL-ga nisbatan fraksiyaning ulushi, %	89,3	75,7	86,5
Namligi, %	9,71	6,19	8,45
Kulning ulushi, % absolyut quruq massaga nisbatan	3,72	23,9	3,83
Ekstraktiv moddalar, %	1,02	0,24	0,38
Yengil gidrolizlanuvchi moddalar, %	1,89	8,2	3,2
Qiyin gidrolizlanuvchi moddalar, %	14,1	26,8	23,7
Klasson lignini, %	79,3	41,2	68,9

GL-ning element tarkibini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, kulning miqdorini hisobga olmaganda, uglerod atomlari miqdori GL-larning organik massasini taxminan 60% ni tashkil etadi. Umumiy massaga nisbatan solishtirganda ShQGL-ga nisbatan PChQGL va YoQGL tarkibidagi uglerod miqdori ancha katta. H/C atom nisbatlari shuni ko‘rsatdiki, YoQGL-da PChQGL-ga nisbatan ko‘proq alifatik strukturalar mavjud, O/C nisbatining yuqori ekanligi bilan ShQGL boshqa namunalarga nisbatan ko‘proq oksidlanganligini ko‘rsatdi (2-jadval).

2-jadval

Gidroliz ligninlarining element tarkibi va atomlar nisbati (kulning miqdorini hisobga olmaganda)

O‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar		GL namunasi		
		PChGL	ShQGL	YoQGL
GL element tarkibi, %	Uglerod (C)	61,63	58,51	59,09
	Vodorod (H)	4,90	5,13	5,89
	Kislorod (O)	31,43	35,36	34,16
	Oltinugurt (S)	0,88	0,49	0,33
	Azot (N)	1,16	0,59	0,54
O/C nisbati		0,51	0,60	0,58
H/C nisbati		0,95	1,05	1,20


Funksional guruhlar tarkibini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, PChQGL (2,22%) tarkibida karboksil guruhlar (-COOH) ShQGL va YoQGL-ga nisbatan ko‘p. YoQGLda metoksil guruhlarining (-OCH<sub>3</sub>) bosqa GL-larga nisbatan ko‘pligi, qattiq daraxt turlari ligninlariga xos bo‘lgan gwayatsil va siringil birliklarining ko‘pligi bilan izohlash mumkin. ShQGL va PChQGL-lari bir yillik o‘simliklarni qoldiqlari bo‘lganligi sababli -OCH<sub>3</sub> guruhlar kamroq (3-jadval).

## Gidroliz ligninlardagi funksional guruhlar tarkibi

GL namunasi	Funksional guruhlar , %						
	-OCH <sub>3</sub>	-CO	-COOH	-OH <sub>umum.</sub>	-OH <sub>fen.</sub>	-OH <sub>alif.</sub>	-OH <sub>COOH</sub>
PChGL	5,83	6,81	2,22	8,34	3,01	4,49	0,84
ShQGL	5,06	4,14	1,65	8,76	2,54	5,60	0,62
YoQGL	7,9	2,86	2,12	9,73	3,71	6,02	0,79

Analitik piroliz usuli bilan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida, akonit, afsonak va shirinmiya qoldiqlarining pirolizatlari tarkibida, uchuvchan aromatik birikmalarining (UAB) 42,24%, 37,65%, 49,95% ni ligninlarning G-turiga mansub bo'lgan gvayatsil monomer hosilalari tashkil qilishi aniqlandi.

Akonit qoldig'ining UAB tarkibida, siringil monomer hosilalarini 5,17% saqlangan bo'lib, bu afsonak (22,48%) va shirinmiya (23,75%) UAB-laridagiga nisbatan kamligi aniqlangan. Shuni ta'kidlash kerakki akonitning UAB-larida, fenilbenzil birikmalarining ulushi 49,14% ni tashkil etdi, o'z navbatida afsonak va shirinmiya UAB-larida mos ravishda 22,48% va 23,48% miqdorda mavjudligi aniqlandi (1-rasm).



**1-rasm. O'rganilayotgan o'simlik qoldiqlarining uchuvchan aromatik birikmalarining tarkibidagi fenilbenzil, gvayatsil, siringil hosilalarining ulushi**

Afsonak qoldig'ining namligi akonit va qizilmiya qoldiqlariga nisbatan yuqoriligi aniqlandi, bu, ehtimol, afsonak poyalarining kapillyar tizimi tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. O'rganilayotgan o'simlik chiqindilari namunalarining namligi 15% dan oshmaydi. Afsonak va shirinmiya qoldiqlarining kul miqdori taxminan 5% ni tashkil etdi, bu o'tsimon va butasimon o'simliklar uchun xosdir. Akonit ildizlari qoldiqlarida kulning ulushi 17% bo'lib, bu akonit ildizlari va ildizpoyasida kremniy oksidning spetsefik to'planishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O'simlik qoldiqlaridagi sellyuloza miqdori 30-39%, gemitsellyuloza esa 18-28% oralig'ida bo'lishi kuzatildi, bu o'tsimon va butasimon o'simliklar uchun xos emas, balki daraxtsimon o'simliklarga xosdir. Shirinmiya

ildizi qoldiqlarida lignin miqdori 29,84%, akonit qoldiqlarida 18,52%, afsonak qoldiqlarida 22,82% ni tashkil etdi (4-jadval).

4-jadval

O'rganilayotgan o'simlik qoldiqlarining umumiy xususiyatlari

O'rganilayotgan ko'rsatkichlar	Akonit qoldig'i	Afsonak qoldig'i	Shirinmiya qoldig'i
Namligi, %	7,95±0,32	13,28±0,46	7,45±0,35
Kulning ulushi, % absolyut quruq massaga nisbatan	17,03±0,83	4,98±0,23	5,52±0,38
Sellyuloza, % absolyut quruq massaga nisbatan	30,72±0,43	35,39±0,49	38,36±0,59
Gemitsellyuloza, % absolyut quruq massaga nisbatan	26,64±0,51	28,01±0,47	18,35±0,32
Klasson lignini, % absolyut quruq massaga nisbatan	18,52±0,55	22,82±0,72	29,84±0,61
Ekstraktiv va boshqa moddalar, % absolyut quruq massaga nisbatan	7,09±0,12	9,41±0,07	7,92±0,08

Olingan natijalar asosida, o'rganilgan GL va o'simlik qoldiqlari, lignin mahsulotlarini olish maqsadida kimyoviy va biologik qayta ishlash uchun istiqbolli xomashyolar ekanligi xulosa qilindi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobida «**O'simliklarni o'sishi tezlashtiruvchi Roslin, Uglin va dorilovchi Dorilin preparatlarni ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish**» deb nomlangan bo'lib, tadqiq qilingan lignin tarkibli chiqindilardan yaratilayotgan agrokimyo vositalarini ishlab chiqarishning texnologik jihatlari keltirilgan.

Ishlab chiqilayotgan qishloq xo'jaligi preparatlarining asosiy yarim tayyor mahsuloti bu suvda eruvchan nitrolignin (SENL) hisoblanadi. Nitroligninlarni (NL) ishlab chiqarishning ikki usuli mavjud: quruq va suyuq.

Tajriba natijalari asosida PChQGL, ShQGL va YoQGL-larini suyuq usulda nitrolash jarayonlari uchun zarur bo'lgan qattiq : suyuq (q : s) fazalar nisbatlari (gidromodul (GM)) tanlandi. O'rganilayotgan GL-lardan SENL olish uchun optimal GM (q : s) 1:9 ekanligi aniqlandi (5-jadval).

Tajribalar natijalari (6-jadval) shuni ko'rsatdiki, tadqiq qilingan GL-larni nitrolash jarayoni harorati oshgan sari NL unumi kamayadi, aksincha kislotali eritmaga o'tadigan moddalarning ulushi asta-sekin oshib boradi. Shundan kelib chiqib, PChQGL, ShQGL va YoQGL-dan SENLni suyuq usulda olish uchun jarayonning harorati  $95 \pm 1$  °C bo'lishi kerakligi belgilandi.

GL-ni nam usulda nitrolash jarayoni uchun melanj konsentratsiyasini tanlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, melanj konsentratsiyasi 1% dan 5% gacha ko'tarilganda, NL yarim tayyor mahsulotini unumi va unung ishqoriy eritmada erimaydigan qismi proporsional ravishda kamayib boradi. Ushbu qonuniyat, ShQGL ni nitrolashda ham saqlanib qoladi, faqat bunda melanj konsentratsiyasi 1% dan 7% ga ko'tarilguncha kuzatiladi, bu ShQGL-da kul miqdori yuqoriligi bilan izohlanadi. Shundan kelib chiqib, PChQGL, YoQGL-ni suyuq usulda nitrolash jarayonida maksimal darajada past ishqorli eritmalarda eruvchanlikka ega SENL olish uchun melanj eritmasining optimal konsentratsiyasi 5%, ShQGL uchun esa – 7% bo'lishi kerak degan xulosaga kelindi.

Q : s fazadagi GM-ning GL-larni suyuq usulda nitrolash jarayoniga tasiri

GM, q : s	Xomashyo massasiga nisbatan NL unumi, %	Moddalar miqdori, %		
		Kislotali eritmada eruvchan, %	Ishqoriy eritmada eruvchan, %	Ishqoriy eritmada erimaydigan, %
PChQGL				
1:5	96,75±0,24	3,25±0,24	61,24±0,41	35,51±0,41
1:7	95,85±0,29	4,15±0,29	64,03±0,39	31,82±0,39
1:9	93,98±0,43	6,02±0,43	65,83±0,24	28,15±0,24
1:11	93,50±0,36	6,50±0,36	65,67±0,19	27,83±0,19
1:15	93,36±0,34	6,64±0,34	65,87±0,33	27,49±0,33
ShQGL				
1:5	97,72±0,36	2,28±0,36	22,48±0,23	75,24±0,23
1:7	96,85±0,42	3,15±0,42	27,73±0,75	69,12±0,75
1:9	95,51±0,77	4,49±0,77	33,86±0,45	61,65±0,45
1:11	94,85±0,32	5,15±0,32	34,73±0,36	60,12±0,36
1:15	94,40±2,12	5,60±0,35	35,55±0,47	58,85±0,47
YoQGL				
1:5	97,17±0,31	2,83±0,31	53,25±0,28	43,92±0,28
1:7	94,30±2,27	5,70±0,25	55,21±0,35	39,09±0,35
1:9	91,78±0,58	8,22±0,58	59,46±0,20	32,32±0,20
1:11	90,19±0,39	9,81±0,39	58,71±0,35	31,48±0,35
1:15	89,50±0,22	10,50±0,22	59,67±0,54	29,83±0,54

Haroratni GL-larni suyuq usulda nitrolash jarayoniga tasiri  
(5% melanj, GM 1:9, vaqt 3 soat)

Harorat, °C	Xomashyo massasiga nisbatan NL unumi, %	Moddalar miqdori, %		
		kislotali eritmada eruvchan, %	ishqoriy eritmada eruvchan, %	ishqoriy eritmada erimaydigan, %
PChQGL				
54-56	97,89±0,26	2,11±0,26	62,11±0,55	35,78±0,55
74-76	93,98±0,43	6,02±0,43	65,83±0,24	28,15±0,24
94-96	84,81±0,89	15,19±0,89	68,83±0,35	15,98±0,35
ShQGL				
54-56	98,68±0,33	1,32±0,33	31,26±0,30	67,42±0,30
74-76	95,51±0,77	4,49±0,77	33,86±0,45	61,65±0,45
94-96	88,85±0,56	11,15±0,56	28,12±0,75	60,73±0,75
YoQGL				
54-56	97,72±0,22	2,28±0,22	58,28±0,51	39,44±0,51
74-76	91,78±0,58	8,22±0,58	59,46±0,20	32,32±0,20
94-96	80,93±0,44	19,07±0,44	52,84±0,47	28,09±0,47

Maksimal darajada eruvchan lignin moddalarini olish uchun, PChQGL va YoQGL-larini nitrolash jarayonining davomiyligi ShQGL-ga nisbatan ikki baravar kam vaqt talab etilishi aniqlandi. Buning sababi shundaki, PChQGL tarkibidagi gidrolizlanishi qiyin bo'lgan polisaxaridlar va kul miqdori kam, Klasson lignini miqdori esa ShQGL va YoQGL-ga qaraganda ko'p. Shunday qilib, suyuq usulda NL olish uchun, nitrolash jarayonining davomiyligi PChQGL va YoQGL uchun – 3 soat, ShQGL uchun esa – 6 soat bo'lishi lozimligi belgilandi.

O'rganilayotgan GL-larning quruq usulda nitrolash jarayoniga ta'sir

qiluvchi omillarning darajasini baholashda, tajribalarni matematik rejalashtirishning Boks–Uilson usuli qo‘llandi, natijada quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

$$\begin{aligned} \text{PChQGL:} & 35,58 + 3,86 X_1 + 3,91 X_2 + 2,23 X_3 + 3,35 X_4 + 2,25 X_5 \\ \text{ShQGL:} & 11,85 + 2,67 X_1 + 3,33 X_2 + 1,45 X_3 + 3,59 X_4 + 2,53 X_5 \\ \text{YoQGL:} & 29,57 + 2,94 X_1 + 2,96 X_2 + 1,76 X_3 + 3,82 X_4 + 3,19 X_5 \end{aligned}$$

Tajribalarni matematik rejalashtirish usuli bilan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, o‘rganilayotgan GL-larni quruq usul bilan nitroflash uchun quyidagi maqbul sharoitlar belgilandi:

- melanj konsentratsiyasi – 50% (50,2% H<sub>2</sub>O; 45% HNO<sub>3</sub>; 4,8% H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>);
- melanj : GL nisbati – 4 : 10;
- aralashtirish davomiyligi – 6 soat;
- GL zarrachalarining o‘lchami – 2 mm;
- aralashtiruvchi qurilmaning aylanish tezligi – 20 aylan./daqqa.

NL-ni eritish jarayonini optimallashtirish lotin kvadratlarining 3x3 rejasi yordamida amalga oshirildi va quyidagi sharoitlar belgilandi: jarayonning harorati – barcha o‘rganilayotgan GL-lar uchun 100 °C, jarayon vaqti – PChQGL, YoQGL uchun 3 soat, ShQGL uchun esa 6 soat, barcha o‘rganilayotgan GL-lar uchun ishqorning konsentratsiyasi suyuq usulda – 3%, quruq usulda – 4%.

O‘rganilayotgan o‘simlik qoldiqlarining kislotali gidrolizini o‘rganish natijasida, GM 1:5 va 1:7 da quyuq massa hosil bo‘lishi sababli eritmaning aralashishi va shimilishi qiyin bo‘lishi aniqlandi, bu esa gemitsellyulozalarning to‘liq gidrolizlanishiga va ligninning oksidlanishiga to‘sqinlik qildi. O‘simlik qoldiqlarining gemitsellyulozalarini gidroliz qilish uchun q:s muhitdagi maqbul GM 1:9 ekanligi aniqlandi, bunda yaxshi aralashadigan suyuq aralashma hosil bo‘lishi va ligninlarning oksidlanish va nitrolanish jarayonlarining ijobiy kechishi aniqlandi (7-jadval).

Kislotali gidroliz jarayoning dinamikasini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, akonit va afsonak o‘simlik qoldiqlarining kislotali gidroliz jarayonida 3 soatdan keyin, shirinmiya ildizlari qoldiqlarida 4 soatdan keyin, eruvchan moddalarning kislotali eritmaga o‘tishi sekinlashishi aniqlandi (8-jadval).

O‘rganilayotgan akonit va afsonak qoldiqlarining kislotali gidrolizi uchun melanjning optimal konsentratsiyasi 2,0%, shirinmiya uchun esa 2,5% ekanligi aniqlandi.

O‘simlik qoldiqlarini melanj eritmasi bilan gidroliz jarayoni uchun haroratni tanlash bo‘yicha tadqiqotlar natijasida 95°C maqbul sharoit ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarini hisobga olgan holda, kislota bilan ishlov berilgan akonit, afsonak, shirinmiya qoldiqlarini 2% NaOH eritmasi bilan ishlov berishda qattiq suyuq faza nisbati – 1:9, harorat 95°C, jarayon davomiyligi 3-4 soat maqbul sharoit ekanligi aniqlandi.

7-jadval

## GM q : s fazalarining o‘simlik chiqindilarining kislotali gidroliz qilish jarayoniga ta’siri

GM, q : s	Kislota bilan ishlov berishdan keyingi qoldiq, % xomashyo massasiga nisbatan	Moddalar miqdori, %				
		kul	sellyuloza	gemitsellyuloza	lignin	ekstraktiv va boshqa moddalar
Akonit q‘oldig‘i						
1:5	93,43	16,95	32,39	27,16	19,43	4,17
1:7	91,23	16,49	33,10	27,16	19,62	3,63
1:8	88,20	16,55	34,07	26,38	19,98	3,03
1:9	84,92	17,14	35,21	24,11	20,65	2,89
1:10	83,51	17,08	35,44	24,02	20,67	2,79
Afsonak q‘oldig‘i						
1:5	93,02	4,98	36,84	28,58	24,04	5,56
1:7	91,09	4,83	37,54	28,60	24,21	4,82
1:8	88,02	4,85	38,66	27,79	24,68	4,02
1:9	84,51	5,04	40,07	25,47	25,57	3,85
1:10	83,14	5,02	40,32	25,37	25,58	3,72
Shirinmiya qoldig‘i						
1:5	93,93	5,47	40,23	18,54	31,13	4,64
1:7	92,19	5,29	40,90	18,51	31,28	4,02
1:8	89,66	5,28	41,85	17,87	31,68	3,32
1:9	87,07	5,32	42,88	16,20	32,46	3,15
1:10	85,50	5,04	43,23	16,16	32,52	3,05

8-jadval

## O‘simlik qoldiqlarini kislotali gidroliz jarayonining dinamikasi


Vaqt, daqiq	Kislota bilan ishlov berishdan keyingi qoldiq, % xomashyo massasiga nisbatan	Moddalar miqdori, %				
		kul	sellyuloza	gemitsellyuloza	lignin	ekstraktiv va boshqa moddalar
Akonit q‘oldig‘i						
30	97,38	17,45	31,17	27,22	18,83	5,33
60	95,31	17,69	31,78	27,11	19,10	4,31
120	93,10	17,50	32,30	27,35	19,38	3,46
180	84,91	17,14	35,21	24,11	20,65	2,89
240	82,60	17,11	36,19	24,51	19,28	2,91
360	81,55	17,12	36,50	24,17	19,35	2,85
Afsonak q‘oldig‘i						
30	96,69	5,14	35,55	28,83	23,37	7,12
60	94,29	5,23	36,38	28,82	23,79	5,78
120	92,11	5,17	36,98	29,07	24,13	4,64
180	84,5	5,04	40,07	25,47	25,57	3,85
240	82,08	5,04	41,24	25,93	23,91	3,88
360	81,05	5,04	41,59	25,57	23,99	3,80
Shirinmiya qoldig‘i						
30	98,90	5,53	38,63	18,37	29,87	7,61
60	97,18	5,23	39,24	18,32	30,25	6,97
120	94,92	5,22	40,09	18,19	30,66	5,84
180	87,07	5,32	42,88	16,20	32,46	3,15
240	84,91	5,19	43,75	15,78	33,25	2,03
360	84,14	5,13	44,02	15,38	33,52	1,95

